

QADRİNG BALAND BO'LSIN, ONA TILIM!!!

Ahmerov Sobir Nazarkosimovich

*Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o'qitish va malaka oshirish markazi
Jizzax viloyati hududiy bo'linmasi rahbari*

**“Davlat tilining obro‘- e’tibori — butun
xalq, butun jamiyatning obro‘- e’tiboridir”
Sh.Mirrziyoyev**

Til—insonga berilgan buyuk ne'matlardan biri. Ushbu buyuk ne'mat vositasida yaqinlarimiz ko'magida dunyonи anglaymiz, his -tuyg'ularimizni ifodalaymiz, farzandlarimizni tarbiyalaymiz, o'rganganlarimizni o'rgatamiz. Adabiyotshunos Vahob Abdurahmonov til haqida shunday fikr bildirgan: “Til—ruhimiz tarjimoni”. Darhaqiqat,til nafaqt ruhimiz tarjimoni, balki millatimizning milliy O'zligini, ruhini, or-nomusini, ma'naviy qiyofasini, orzu-umidlarning ham ifodasidir. Tilining sofligi o'z xalqining ma'naviyati va ma'rifatini belgilab beradi. Har bir millat o'z tilini e'zozlasa, qadrlasa, uning taraqqiyoti uchun jon kuydirsa, u til asrlar davomida o'z mavqeyini saqlagan holda gullab yashnab, rivojlanishda davom etadi-ki, va aslo zavol topmaydi. Ajdodlarimizdan meros ona tilimizning ravnaqi yo'lida o'z hissasini qo'shgan ulug' bobokalonlarimizdan qomusiy olim Abu Nasr Forobi (873-930) yaratgan asarlar ichida “Fanlar tasnifi” (yoki “Fanlar tasnifi haqidagi so‘z”) kitobi tilshunoslik masalalariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.Buyuk alloma tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va stilistika kabi bo'limlari haqida dastlabki tushunchalarni bergen.

Abu Rayhon al - Beruniy (937-1048), ma'lumotlarga qaraganda, 150 dan ortiq asar yaratgan. Uning til haqidagi qarashlari “Saydana” nomli asarida beriladi. Ushbu asar dorivor o'simliklar, hayvonlar va ma'danlar tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltiriladi.Beruniy asardagi 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomiga izoh beradi. U asarda 4500 dan ortiq

arabcha, yunoncha, suriyacha, forscha, xorazmiycha, so‘g‘dcha, turkcha va boshqa tillardan o‘simlik, hayvon, dorivorlar nomlarini to‘playdi va izohlaydi. Mazkur lug‘at ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lug‘at sifatida alohida ahamiyatga egadir. Abu Ali ibn Sino (980-1037) turli sohalarda, shu jumladan, tilshunoslik bobida ham bir qancha asarlar yaratdi. Qomusiy alloma Ibn Sino fizikaviy tovushlar bilan nutq tovushlarini bir-biridan farqlaydi. Fizikaviy tovushlarni “savt”, nutq tovushlarini esa “harf” so‘zlar bilan nomlaydi. Fizikaviy tovushning ham, nutq tovushining ham havoning to‘lqinsimon harakati sababli hosil bo‘lishini ta’kidlaydi.

Mahmud Koshg‘ariy O‘rta Osiyoning XI asrida yashab ijod etgan buyuk allomasidir. U turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi va leksikologiyasiga asos soldi, fonetikasi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar qoldirdi. “Devon lug‘atit turk” asarida to‘qqiz mingga yaqin turkiy so‘z arab tiliga tarjima qilinib, izohlanadi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida muhim fikrlar bayon qilinadi.

XV asrning ikkinchi yarmidagi buyuk mutafakkir, alloma, she’riyat sultonii, o‘zbek adabiy tilining homiysi va targ‘ibotchisi Alisher Navoiy (1441-1501) hazratlaridir. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” (1499) asarida tillarni muhokama qilish orqali o‘zbek tilining o‘ziga xos jihatlariga, adabiy-badiiy ijodda - asarlar yaratishda o‘zbek tilining ham ustuvor, ulug‘vor til ekanligini, shunga ko‘ra fors tili bilan bemalol raqobat qila olishini, hatto ayrim o‘rinlarda, tasviriylik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan esa undan ilgari keta olishini bayon qiladi hamda to’la asoslaydi.

Ona tilimizning ravnaqi yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan, nazariy va amaliy targ‘ibot olib borgan jadidlarimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Elbek kabilarning maqola va kitob, darsliklarida tilshunoslik qarashlari o‘z aksini topdi. Shu o‘rinda Abdurauf Fitratning “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba”, “Sarf” (1925), “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba”, “Nahv” (1926) darsliklarini yaratganini alohida ta’kidlash lozim.

Ajdodlarimizning ona tilining istiqboli yo‘lidagi mehnatlari samarasi 1989-yil 21-oktabrda yuzaga chiqdi. Chunki bu kunda **o‘zbek tiliga davlat tili maqomi**

berildi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining 1-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” deya belgilab qo‘yilgan.

Ming taassufki, yaqin yillarda yoshlarimizning ommaviy madaniyat ta’siri natijasida tilning sofligi yo‘qola boshladi. Turli o‘zlashma so‘zlarni aralash qo‘llash “urf” bo‘lib, bu qo‘sinqalarimizda, kinolarimizda ham o‘z aksini topa boshladi. Achinarlisi xalqni ma’naviyatini oshiruvchi kino, teatr san’atida sheva va hozirgi “urf” bo‘lgan tildan foydalanishidir. Bundan tashqari tashkilot, korxona, savdo shaxobchalarida chet so‘zlardan foydalanish va bu ham kamdek ushbu so‘zlarni qo‘pol xatoliklar bilan qo‘llash davlat tilining sofligi va uning qo‘llanish doirasining kengaytirish uchun himoya zaruryatini keltirib chiqardi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mayqeyini oshirish maqsadida bir qator farmon va qarorlar chiqardi. Jumladan, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari tog‘risida” gi farmonini e’lon qildi. Ushbu farmonga ko‘ra o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan 21-oktabr kuni “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilindi hamda Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Ushbu departmentning vazifalariga quyidagilar kiritildi:

- davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish;
- davlat organlari va tashkilotlari, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini tashkil qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan, shuningdek, uni rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- o‘zbek tilining yozma nutqi me’yor va qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha hamda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish;
- davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini ishlab chiqish;
- davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar va “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, shuningdek, “O‘zbek tili bayrami kuni”ni nishonlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;
- ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish;
- davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Bosh vazir tomonidan barcha vazirliklarga, idoralar va tashkilotlar, shuningdek mahalliy hokimliklarga yo‘llangan topshiriqda 2021-yil 1-avgustga qadar quyidagilar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida bo‘lishi ta’milanishi kerakligi ta’kidlandi:

- barcha joy va ko‘cha nomlari;
- atamalar;
- tashkilotlarning nomlari;
- peshlavhalar;
- ommaviy targ‘ibot vositalari;
- reklama va e’lonlar;
- ish qog‘ozlari va turli blanklar.

Bu barcha islohotlar milliyligimiz ramzlaridan biri ona tilimizning avlodlarimizga sof holda yetkazish va o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni

vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda o‘zbek tilini davlat tili sifatida to‘laqonli joriy etishni ta’minlash va uning mavqeyini tubdan oshirish va yanada rivojlantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 80 b.
3. 2016 yil 13 maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g’risida”gi PF-4797 sonli Farmon.
4. Abduaazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.
5. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009.
6. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013.
7. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboyev. – Toshkent, 2004.